

# TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITINI XALQARO AUDIT STANDARTLARI TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH TADQIQI

*Boymatova Chinora Ilhomovna*

*O'zbekiston Respublikasi Bank- moliya akademiyasi magistri.*

**Annotatsiya.** Maqolada tijorat banklarida ichki auditini xalqaro audit standartlari talablari asosida takomillashtirish tadqiqi, hamda korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etish bo'yicha amaliy malakaga ega bo'lish, ichki auditni tashkil qilishning normativ-huquqiy asoslari, uni rejalashtirish va o'tkazish tartibi hamda boshqa masalalar yoritib berilgan. Shuningdek, auditning xalqaro standartlari asosida aktivlar qadrsizlanishi auditining maqsadi va vazifalari haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** audit, aktivlar qadrsizlanishi, nomoddiy aktivlar, xalqaro standart.

## KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizi aholi turmushi farovonligini yaxshilashga qaratilmoqda. Juhon tajribasi, shuni yaqqol ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda keng miqyosdagi o'zgarishlarni muvaffaqiyatlama amalga oshirishning muhim sharti - mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar tinchligini ta'minlashdan iboratdir. Bu esa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida makroiqtisodiy barqarorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ularning faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xalqaro differensiatsiyalashgan, ko'p tarmoqli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazoratning vazifalari kengayib boradi. Bunda Davlat nazorati, ya'ni barcha hokimiyat tuzilmalarining nazorat organlari faoliyatları uyg'unlashtirilishi kerak. Shuningdek, mustaqil nazoratga ega bo'lgan audit tizimini ham rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti talablaridagi soliq, byudjet, bank tizimi hamda bozorga xizmat qiluvchi infratuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yilganligi xorijiy mamlakatlar sarmoyalarining kirib kelishiga zamin bo'lib, ko'plab yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga va ishjoylari tashkil etilishiga asos bolmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ichki audit faoliyati, asosan, boshqaruvin organlarini ishonchli axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgan, deb hisoblanadi. Biroq jahon moliyaviy inqirozining ta'sir kuchini yumshatish va uning salbiy ta'sirlarining oldini olish maqsadlarida biznes

risklar va inqiroz belgilari paydo bo‘lishi haqida mulkdorlarni ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlash zaruriyati uning vazifalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda.

Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy nazorat tizimida auditning o‘rni, auditor va mijoz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kengayib bormoqda. Iqtisodiyotni boshqarishdagi o‘zgarishlar auditorlardan o‘z malakalarini muntazam oshirib borishni talab qilmoqda, aks holda, auditor vazifalarini bajarishda tavakkalchilik darajasining yuqori bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, auditorlik normalari zimmasiga noto‘g‘ri ma’lumot bergenligi sababli moddiy javobgarlikni qo‘yadi. Rivojlangan davlatlarda auditning hozirgi bosqichi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilikka asoslangan bo‘lib, iloji boricha kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik va ularning oldini olishni o‘z ichiga oladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

XBF tegishli ko‘rsatmalami ishlab chiqadi va professional buxgalterlar biznesda ishlashi uchun zarur bo‘lgan resurslarni tarqatishga ko‘maklashadi. Shuningdek, u kichik va o‘rta korxonalar hamda kichik va o‘rta biznesda band bo‘lgan buxgalter-amaliyotchilar (SMP)ga va jahon iqtisodiyotida muhim ro‘l o‘ynaydigan, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo‘lgan masalalarni yechish bilan shug‘ullanadigan guruhlarni ham tashkil etadi.

Sohada ishlayotgan professional buxgalterlar Qo‘mitasi (PAIB) tijorat banklari, sanoat, moliyaviy xizmatlar, ta’lim, davlat va notijorat sektorlarida ishlaydigan butunjahon professional buxgalterlari va XBFning a’zolariga xizmat ko‘rsatadi. Uning maqsadlari tashkilotlar va ulaming hissadorlari uchun qiymat yaratish, saqlash va hisobot berishda professional buxgalterlarning muhim ro‘li to‘g‘risida habardorlikni oshirish yo‘li bilan sohada ishlayotgan professional buxgalterlarning qadrini ko‘tarish va hissa qo‘shish.

Ayni paytda, bank ichki auditini olib borish, uning faoliyatida mummolarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Iqtisodoyini yuqori sur’atlarda rivojlanishi bank tizizmi, shuningdek undagi ichki audit tuzilmalari faoliyatiga yangi talablar belgilamoqda.

Birinchidan, ichki nazorat tizimini axborotning ishonchliligi, qonun hujjalari muvofiqligi, aktivlarning saqlanishi, alohida operatsion va tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining samaradorligi va samaradorligi nuqtai nazaridan baholash uchun mo‘ljallangan.

Ikkinchidan, u risklarni boshqarish tizimlarining samaradorligini tahlil qilishi va baholashi va xavflarni kamaytirish usulini taklif qilishi kerak.

Uchinchidan, tijorat banklarining boshqaruvi tizimining korporativ boshqaruvi tamoyillari, maqsadlari va vazifalari muvofiqligini baholash vazifasiga kelmoqda.

Ichki audit bank xatarlarini boshqarish, nazorat qilish va korporativ boshqaruv jarayonlari samaradorligini baholash va yaxshilash uchun tizimli va izchil yondashuvdan foydalangan holda o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida bank biznesining jadal rivojlanishi sharoitida ichki audit faoliyatini tashkil etish alohida kredit muassasasi va umuman bank tizimining holatiga ta’sir ko‘rsatadigan eng jiddiy omillardan biri- ichki nazoratdir.

Binobarin, mohiyatan banklarning barqarorligi nafaqat ularning omon qolish siyosatining atributi, balki kelajakdagi rivojlanish strategiyasidir. Shu munosabat bilan ichki nazoratni tashkil etishning turli shakllari va usullarini o‘z vaqtida o‘rganish juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ichki auditi tizimi ichki nazoratning uzviy mustaqil tuzilmasi hisoblanadi. Tijorat banklarining ichki auditi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklarida ichki audit to‘g‘risidagi me’oriy-huquqiy hujjatlari talablaridan kelib chiqadi.

Ichki nazorat tizimini kerakli darajada bo‘lish. Audit nazariyasi va amaliyotida keng qo‘llaniladigan asoslardan biri - bu yetarli isbot va ma’lumotlar to‘plash uchun ichki nazorat tizimi ishidan keng foydalanishdir. Shu sababli ichki nazorat tizimini to‘la o‘rganish, uning samaradorligini aniqlash va ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirib ko‘rish talab qilinadi. Ayrim hollarda ichki nazorat tizimi shu qadar haqiqatdan uzoq bo‘lgan ma’lumot berishi mumkinki, bu samarali audit o‘tkazishga to‘siq bo‘ladi. Yetarli darajada isbotlar va ma’lumotlar yig‘ish. Har qanday tekshirish va uning xulosasi isbotlar va ma’lumotlarga asoslanadi. Asoslar qanchalik ko‘p bo‘lsa, xulosa shu darajada kafolatlanadi. Audit o‘tkazish metodikasida asosan isbot va ma’lumotlar yig‘ish ustida fikrlar boradi. Bir tomonidan bu ish auditorning tajribasi va bilimiga ham bog‘liqdir.<sup>1</sup>

Natijalarini ma’lum qilish standartlari. Auditor xulosasida tekshirilgan moliyaviy hisobot to‘la umumiyligini qilingan buxgalteriya standartlariga mos holda tuzilganligi ko‘rsatilishi kerak. Auditorlik firmalari uchun sifat nazorati firma mijozlar oldidagi o‘z kasbiy majburiyatlarini to‘liq bajarishi kafolatini ta’minalash usullari yordamida amalga oshiriladi. Bu auditorlik firmalarining tashkiliy tizimi va ular o‘rnatadigan muolajalarga taalluqli. Sifat nazorati umumiyligini qilingan audit standartlari bilan uzviy bog‘liq, ammo ulardan farq qiladi. Auditorlik firmasi har bir audit o‘tkazishda umumiyligini qilingan audit standartlariga rioya qilinganligini kafolatlashi kerak. Sifat nazorati - bu auditorlik firmasi bir auditga joriy qilish kerak bo‘lgan standartlar chegarasidan chiqmaslikka yordam beruvchi muolajalardir. Bundan kelib chiqib, sifat nazorati jami tijorat banklari uchun kiritiladi, umumiyligini qilinganligini kafolatlashi kerak.

<sup>1</sup> Sirojiddinov I. Q. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining xo‘jalik amaliyotida qo‘llanishi masalalari. –Namangan, Usmon Nosir nashriyoti. 2022.

Bunday sektsiyalar o‘z-o‘zini boshqarishda va nazorat qilishda katta ro‘l o‘ynaydi. Seksialarga a’zo bo‘lish uchun auditorlik firmalariga, albatta, ma’lum talablar qo‘yiladi va bunday sektsiyaga a’zo tijorat bank mavqeyi ham oshib boradi. Tijorat bank sektsiyalar ichida bir birini tekshirish huquqiga ega bo‘ladi va faqat tekshiruvdan muvaffaqiyatli chiqqan bank sektsiya a’zoligida qolishi mumkin. Bunday tekshiruvlar banklarga ham auditorlarga ham foydali bo‘lib, ularga bo‘lgan ishonchni oshirib boradi.

Audit xalqaro standartlarida sifat nazorati element uchun qisqa talablar ishlab chiqilgan va bu talablarga rioya qilish uchun namunaviy amallar keltirilgan. Auditorlik subyektlarining ish faoliyatini yaxshilash va sifat nazorati standartlariga to‘la amal qilinishini ta‘minlash uchun ulami toifalarga ajratilgan. Keltirilgan muammolar bozor iqtisodi sharoitida mulkchilikning turli xil shakllari mavjud bo‘lgan holatda nazoratni to‘g‘ri tashkil qilish uchun o‘z yechimini topishi, keltirilgan takliflarga amal qilinishi esa bu yechimni hal qilishda muhim omil bo‘ladi.

Ichki audit xizmati — bankda ichki auditni doimiy tarzda amalga oshiruvchi mustaqil tarkibiy bo‘linma.

- Ichki auditning asosiy maqsadlari va vazifalari quyidagilar hisoblanadi:
- ichki audit tekshiruvi natijalari asosida bankning real holati va ichki nazorat samaradorligining aniq holati to‘g‘risidagi ishonchli va mustaqil axborot bilan bank kengashini ta‘minlash;
- ichki audit tizimini va ichki audit tekshiruv jarayonlarining samaradorligini baholash va tahlil qilish;
- bank faoliyati oldiga qo‘ylgan maqsadga erishishda ma’muriy va operatsion jarayonlarning samaradorligini kuzatish;
- tavakkalchilikni boshqarish jarayonini qo‘llanilishini va tavakkalchilikni baholash metodologiyasining samaradorligini kuzatish;
- moliyaviy axborot tizimini, shuningdek elektron axborot tizimi va elektron bank xizmatini kuzatish;
- buxgalterlik hisoboti va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligin kuzatish;
- bank kapitalining tavakkalchiligini baholash tizimini kuzatish;
- bank faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki me’yoriy hujjalariга muvofiqligini nazorat qilish;
- doimiy taqdim etiladigan hisobotlarning to‘liq va o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;
- Buxgalteriya kitobi va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘rilagini va ishonchliligin o‘rganish;
- Bank rahbariyati bilan birgalikda faoliyat yuritish;
- Bank kengashi talablariga binoan maxsus tekshirishlarni o‘tkazish yoki o‘tkazishga amaliy yordam berish;

- Audit xizmati tekshiruvlari jarayonida aniqlangan qonunbuzarlik holatlari to‘g‘risida bank kengashiga axborot berish.<sup>2</sup>

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida ichki auditini xalqaro audit standartlari mijozlar oldidagi o‘z kasbiy majburiyatlarini to‘liq bajarishi kafolatini ta’minlash usullari yordamida amalga oshiriladi. Bu tijorat banklarining tashkiliy tizimi va ular o‘rnatadigan muolajalarga taalluqli. Sifat nazorati umumiy qabul qilingan audit standartlari bilan uzviy bog‘liq, ammo ularidan farq qiladi. Auditorlik firmasi har bir audit o‘tkazishda umumiy qabul qilingan audit standartlariga rioya qilinganligini kafolatlashi kerak. Sifat nazorati - bu auditorlik firmasi bir auditga joriy qilish kerak bo‘lgan standartlar chegarasidan chiqmaslikka yordam beruvchi muolajalardir. Bundan kelib chiqib, sifat nazorati jami auditorlik firmasi uchun kiritiladi, umumiy audit standartlari esa aniq ish hajmiga qo‘llash uchun mo‘ljallangandir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Navro‘zova K., Otamurodov X., Qurbanov R.. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. 0‘quv qo‘llianma. - T.: «Fanva texnologiya», 2015.
2. Rogulenko T.M. Mejdunarodnye standarty audita. Uchebnoye posobiye. M.: Yurayt, 2017. <https://biblio-online.ru/viewer/mezhdunarodnye-standarty-audita-413011#rayeye/1>.
3. Ergasheva Sh. T. Mejdunarodnye standarty finansovoy otchetnosti. Uchebnik. – T.: TGEU, 2021 g. - 305 str.
4. Sirojiddinov I. Q. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining xo‘jalik amaliyotida qo‘llanishi masalalari. –Namangan, Usmon Nosir nashriyoti. 2022.
5. Hamdamov B.K. Auditning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2021.
6. Fayziyev Sh.N., Yuldasheva S.X. Mejdunarodnye standarty audita. Uchebnik. – T.: TFI, 2020.
7. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 13th Edition. Alvin A Arens and others. Prentice Hall. 2009.

<sup>2</sup> Hamdamov B.K. Auditning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2021.